

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MAKTABGA
TAYYORLASHDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK ISHLARINI
TASHKILLASHTRISH**

*Andijon viloyati Buloqboshi tumani 15-sон DMTT direktori
Kuchkarova Munira Yuldashevna*

Annatatsiya: ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini samarali tashkil qilish haqida aytib o'tilgan.

Аннотация: в данной статье говорится об эффективной организации сотрудничества с родителями в дошкольных образовательных организациях.

Abstract: this article talks about the effective organization of cooperation with parents in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism tashkiloti, ota-onsa, hamkorlik, ta'lism-tarbiya, pedagog, bolalar, odob-axloq.

Ключевые слова: организация дошкольного образования, родители, сотрудничество, воспитание, педагог, дети, манеры.

Key words: preschool education organization, parents, cooperation, education, pedagogue, children, manners.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalar bilan yaqin hamkorlik qilish nafaqat bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ularning ijtimoiy va psixologik tayyorgarligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan birgalikda olib borilgan ishlar:

- ✚ Bolaning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yondashuvni tanlash,
- ✚ Uydagi ta'lism muhiti va ota-onalar qo'llovini tashkil qilish,
- ✚ Ta'lism va tarbiya bo'yicha ota-onalarni xabardor qilish va ularni jarayonga faol jalb qilish orqali yanada samarali bo'ladi.

Shu tariqa, bolalarning maktabga muvaffaqiyatlari tayyorlanishi uchun ta'lism tashkiloti va ota-onalar o'rtaida uzviy hamkorlik zarur. Bu hamkorlik bola ta'liming ilk poydevorini sifatli va mustahkam qilishga xizmat qiladi.

Hamkorlik pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatları, turmush tarzi, o'ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o'qishi va rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdag'i bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o'rganayotganiga tayanib, ta'lism olish imkoniyatlarini

kengaytiradi. Bolalarni maktabga tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim” to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalar mustaqil ta’lim berish orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalg qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik qilish juda muhim. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish lozim:

1. Ota-onalar bilan muntazam aloqalar:

- ✚ Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, yig‘ilishlar yoki individual maslahatlar tashkil etib, ularni farzandlarining o‘qish va rivojlanish jarayoniga jalg qilishlari zarur.

- ✚ Bu uchrashuvlarda ota-onalarga maktabga tayyorlanishning ahamiyati, metodikalar, o‘quv jarayonining strukturalari va farzandning hissiy-intellektual rivojlanishi haqida ma'lumot berish lozim.

2. Ota-onalar uchun treninglar va seminarlar:

- ✚ Ota-onalar maktabga tayyorlash jarayonida qanday yordam bera olishlari haqida treninglar yoki seminarlar tashkil etish mumkin. Bu seminarlar maktabga tayyorlashda yordam beruvchi o‘yinlar, mashqlar va boshqa metodikalar haqida bo‘lishi kerak.

- ✚ Ota-onalar o‘z farzandlari bilan uyda qanday ishlashlarini o‘rganishlari kerak.

3. Farzandning individual ehtiyojlarini aniqlash:

- ✚ Har bir bola individualdir, shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga harakat qilishi kerak.

- ✚ Maktabga tayyorlashda bola psixologik, intellektual va jismoniy jihatlarni hisobga olish zarur.

4. Uydagi ta’lim muhiti:

- ✚ Ota-onalar maktabga tayyorlash jarayonida farzandlariga uyda ta’lim muhiti yaratishda yordam berishlari kerak. Bu, o‘qish uchun alohida joy, kitoblar, tarbiyaviy o‘yinlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

5. Ota-onalar fikrini inobatga olish:

- ✚ Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ota-onalar fikrlarini doimiy ravishda so‘rab, ularning ehtiyojlari va talablariga javob berishlari kerak. Bu hamkorlik bola rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

6. Bola tayyorgarligini baholash:

⊕ Ota-onalar va ta'lif muassasasi o'rtasida bola tayyorlarligini baholashni tashkil etish kerak. Bu jarayonda ota-onalar bolaning muktabga tayyorligi haqida fikrlar bildirishi, muassasa esa o'zining baholash mezonlarini taqdim etishi kerak.

Muktabgacha yoshdag'i bolaning muktab ta'lifiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydaligidayoq muktab ta'lifiga tayyorlash, uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolalarni muktabga tayyorlash, birinchidan muktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyaviy ishni muktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni muktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

Ota -naning jihatlari esa; bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlarga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish. Bolaning aql-zakovatli bo'lishi-ga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib tarbiya-lanishiga asos yaratish.

Ota -Onaning jihatlari esa;

⊕ Bolalarning oilaviy an'analar, marosimlar, urf – odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash.

⊕ Bolalarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda har xil illatlarga nafrat ruhida tayyorlash.

⊕ Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish. Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish.

⊕ Bolalarda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr-shafqat fazilat-larini, o'zidan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish.



⊕ Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar.

Aksariyat xollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-onsa, xatto ayrim o'qituvchilar xam bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'yaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo

ma'lumotlar ummonida so'zib yurgandek bo'lmokdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarning keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga kabul kilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir.

Xulosa qilib, Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish bolaning har tomonlama rivojlanishi va maktabga muvaffaqiyatli moslashishida muhim ahamiyatga ega.

Ota-onalarni bu jarayonga jalb qilish, ularga ta'lim va tarbiya bo'yicha zarur ko'nikmalarni o'rgatish, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, uydagi muhitni shakllantirish kabi tadbirlar bolani maktabga puxta tayyorlashga yordam beradi. Ota-onalar va ta'lim muassasasi o'rta sidagi doimiy hamkorlik bolalarning intellektual, hissiy va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi hamda jamiyatda bilimli va ijobjiy shaxslar shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuli rejorashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
2. O.U. Hasanboeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o'quv qo'llanma (3-nashr) T.: "Ilm ziyo", 2012y.
3. <http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusta'lim vazirligi sayti.